

AGROKLASTERLAR SOTISH JARAYONLARIDA SEGMENTAR HISOBOTLARNING AHAMIYATI

Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchi*

Annotasiya: *Mazkur maqolada agroklastierlar boshqaruvida segmentar hisob va hisobotini tashkil etish muammolari atroflicha o'rganilgan. Unda agroklastierlarda ichki xo'jalik hisobining turlari va ular o'rtasidagi aloqadorlik turkumlangan, agroklastierlarning segmentlari bo'yicha tegishli xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *agroklastierlar, segment, biznes segmenti, iqtisodiy segment, geografik segment, segmentar hisob, segmentar hisobot*

Abstract: *The article examines the problems of segmental accounting and reporting in the agricultural clusters. It classifies the types of on-farm accounting and establishes their relationship on agricultural clusters. The corresponding conclusions and recommendations in the segments of the agricultural clusters.*

Keu words: *agricultural clusters, segment, economical segment, geographical segment, segmental accounting, segmental reporting*

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining transformatsiyasi jarayonlarida bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan ichki va tashqi tendensiyalar – dunyoda va mamlakatlarda oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi sharoitida qishloq xo'jaligi rivojlanishi strategik ahamiyatining ortishi, ushbu tarmoqda to'plangan tajribalarni jahon xo'jaligida erishilgan so'nggi ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalangan holda rivojlantirishni talab etadi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Qabul qilingan qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlarni amaliyotga tadbiiq etilishi agroklastierlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqaruv va moliyaviy hisob nuqtai-nazaridan tadbiiq etish, amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash bilan birga, agroklastierlar xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish hozirgi kundagi muammolardan hisoblanadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatimiz amaliyotida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan, ammo rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlarda samarali shakllantirilgan agroklastierlarda hisob va hisobotni takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari agroklastierlarda segmentar hisobotni takomillashtirish o'zining shakllanish jarayonida ekanligi va uning nafaqat amaliy jihatlari, balki bir qator nazariy hamda uslubiy masalalari ham o'zining ijobiy yechimini kutayotganligini ko'rsatmoqda.

Boshqaruvning agroklaster tizimini qo'llash, xususan, agroklasterning tarkibiy qismlari hisoblangan ichki xo'jalik bo'linmalari o'rtasida javobgarlik markazlarini belgilash, buning uchun esa korxonaning tarkibiy qismlarini iqtisodiy va geografik segmentlarga ajratish, har bir segmentning daromadi va xarajatlarini alohida hisob-kitob qilish, segmentlar faoliyati yuzasidan ichki xo'jalik hisobotini tuzishni korxonaning hisob siyosatiga kiritish talab etilmoqda.

“Segment” (lot. segmentum) bo'lak yoki aylananing bir qismi degan ma'noni anglatadi.

Buxgalteriya hisobida “segment” tushunchasi tashkilotlar moliyaviy hisobotlarida mavjud faoliyatlarning turli qismlari (segmentlari) haqida ma'lumotni alohida ko'rsatilishi kerakligini anglatadi. Bunday qismlar (segmentlar) turli tovarlarni, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish yoki bitta turdagi boshqa mintaqalarda sotish to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Segmentar hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning ayrim bo'limlari, faoliyatining turlari va ma'sullik markazlari bo'yicha tuzilgan hisobot hisoblandi.

O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori qabul qilingan. Ushbu qaror topshirig'ini bajarishga tayyorgarlik tadbirlari ancha ilgari boshlanib, bunda O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiasiyasi tomonidan 2014-yilda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” davlat tiliga tarjima qilingan. Ulardan biri 8-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti “Operatsion segmentlar” deb nomlanadi. Mazkur standartning 6-bandida operatsion segmentlarga taalluqli segmentlar sanalgan bo'lib, ularga daromad keltirmaydigan boshqaruvga taalluqli bosh ofis va ayrim bo'linmalar kiritilmasligi ta'kidlangan.

Korxonalar boshqaruv hisobiga bugungi kunda “biznes segmenti” deb ataluvchi yangi atama kirib keldi. Biznes segmenti - bu korxonaning ma'lum qismini yoki nisbatan mustaqil bo'linmasini muayyan vakolatlar va mas'uliyat berish maqsadida ajratishdir.²⁵

Boshqaruv hisobi korxonaning tashkiliy tuzilmasini hisobga olgan holda, javobgarlikning turli markazlari (biznes segmentlari) majmuidan tarkib topadi. Segmentar hisobotni javobgarlik markazlari bo'yicha shakllantirilgan hisobot sifatida ta'riflash mumkin. Bozor iqtisodiyoti tarkib topgan mamlakatlarda segmentlar bo'yicha hisobotni shakllantirish tartibi 14-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bilan tartibga solinadi. Bu segmentar hisobot 1993-yildan amal kilib kelmokda. Unga ko'ra, segmentlarning ikkita: xo'jalik va geografik turlari ajratib ko'rsatiladi.

Geografik segment – bu muayyan iqtisodiy muhitdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi, tavakkalchilik va foyda ta'siridagi, tavakkalchiliklar va

²⁵ Xasanov B.A., G'aniev Z.U., Muxammedova D.A., Boshqaruv hisobi.-T.: Iqtisod-Moliya, 2018.

foydadan farq qiluvchi, segmentlarga xos bo'lgan, boshqa iqtisodiy shart-sharoitlarda amal qiluvchi, ajratib chiqariladigan komponentdir.

Segmentlarni ajratishni taqozo etadigan, farq qiluvchi holatlarni, ya'ni ko'pchilik omillarning mos tushishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (1.1.-jadval).

1.1.-jadval

Xo'jalik va geografik segmentlarning belgilari bo'yicha qiyosiy tavsifi²⁶

Segment hosil qilish uchun mezon	Segmentlar	
	Xo'jalik	Geografik
Xo'jalik yoki geografik segmentlarni hisobot segmenti sifatida ajratishni taqozo etadigan omillar: sotishlarning 50% dan ortig'i tashqarida sodir bo'lgan holda; – jami segmentlarni sotishdan olingan tushumlari, segment faoliyati natijalari aktivlarning 10%idan ortiq yoki unga teng bo'lgan umumiy summasiga ega bo'lganda; – korxonada jami tushumlarini 75%idan kam bo'lmagan ulushi hisobot segmentlarini tashqi faoliyatining birgalikdagi jami tushumiga to'g'ri kelganda hisobotlar muvofiqashtiriladi.	Agarda quyidagi belgilar bo'yicha o'xshashliklar mavjud bo'lsa, mahsulot (ish, xizmat) lar ishlab chiqaruvchi xo'jalik bo'linmalari o'zaro bog'liq bo'ladi: – ularning tavsifla-nishida; – ishlab chiqarish ja-rayonlari tavsifida; – mijozlar turi va tavsifida; – segmentning asosiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan xarajatlar va daromadlarni taqsimlash usullarida; – muayyan faoliyat turlari uchun tartibga soluvchi muhit talablarida (soliq, bank va sug'urta).	Bir nechta mamlakat-lardagi guruh, alohida mamlakat, mamlakat ichidagi mintaqada joylashgan segmentlar quyidagi belgilarga ko'ra hisoblanadi: – o'xshash iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar; – amalga oshiriladigan muomalalarning o'xshashligi; – mazkur geografik hududdagi muomalalar bilan bog'liq favqulodda risklar kutilayotganda; – valyuta nazoratining alohida qoidalari amal qilganda; – valyuta muomalalaridan kutilayotgan risklar mavjud bo'lganda.

Agroklastlar hisob amaliyotida bunday tajribaning mavjud emasligini hisobga olgan holda, segmentar hisobot tuzishning ba'zi tamoyillarini ko'rib chiqish zarur:

– segmentar hisobot aniq manzilli, ishonchli, tushunarli, muhimlik kabi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi hamda asosan xarajatlar, daromadlar, mahsulot sotish hajmini hisobga olishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim;

– ichki hisobot tezkorlik, ehtiyotkorlik, taqqoslanuvchanlik xususiyatlariga ega bo'lishi hamda menejerning rejalari, psixologiyasi va usulini nazarda tutishi kerak;

– segmentar hisobot ahamiyatli, haqqoniy, xolis taqdim etilgan bo'lishi, izchil va tugallangan bo'lib, javobgarlik markazi ishini yanada yaxshilashga yo'naltirilishi lozim;

– segmentar hisobotning shakllari va registrilarini tez-tez o'zgartirish maqsadga muvofiq emas, chunki bu holat ularning samaradorligini pasaytiradi;

– boshqaruvchiga minimal hajmdagi hamda murakkab hisob-kitoblarsiz, tizimlashtirilgan hisobot taqdim etilishi lozim;

– hisobotning bosh maqsadi korxonada jamoasini jipslashtirish, ularning salohiyatlarini investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirishi lozim;

²⁶ O'sha joyda

– boshqaruv segmentar hisoboti korxonalar hisob siyosatiga muvofiq kelishi bilan birga moliyaviy hisobning xalqaro standartlari, hisob va hisobotning milliy standartlari, davlatimiz tomonidan qabul qilingan meyoriy-huquqiy manbaga ham asoslanishi lozim.

Agroklasterlar amaliyotida segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, buxgalteriya hisobining 14-sonli "Segmentlar bo'yicha hisobot" nomli xalqaro standarti (BHXS)ga ko'ra, segmentar hisobotda birlamchi aks ettiriladigan quyidagi holatlar nazarda tutilishi lozim:

- tashqi mijozlardan olinadigan daromadlar;
- boshqa segmentlar bilan bo'ladigan muomalalardan olinadigan daromadlar;
- aktivlarning balans summasi;
- segmentlarning majburiyatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish xarajatlari;
- amortizatsiya xarajatlari;
- daromadlar va xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni taqqoslash.

Segment daromadlari korxonalar segmentiga yoki umumiy tushum tarkibiga bevosita kiritilishi mumkin (1.2-jadval).

1.2-jadval

"Samarqand Kamalak Invest Tekstil" MCHJning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti va uning muomala segmentlari²⁷, (mln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	Tovarlar ishlab chiqarish segmentlari				Jami
	Fermerlar uchun	Qayta ishlash korxonalar uchun	Tekstil korxonalar uchun	Boshqa tashkilotlar uchun	
1	2	3	4	5	6
1. Sotishdan olingan tushum	260	1320	390,8	500,8	2471,6
2. Chegirmalar "-" ustamalar "+"	+100,6	-380,6	+340	+160,8	+220,8
3. Sotish-netto	360,6	930,4	730,8	660,4	2682,2
4. Segmentlarning xarajatlari	170	120,6	290,2	180,8	761,6
5. Segmentlarning moliyaviy natijalari	490,4	240	640,2	550	1920,6
6. Taqsimlanmagan xarajatlar (ma'muriy)	150,4	70,5	190,9	170,2	582
7. Korxonaning moliyaviy natijasi	340	160,5	440,3	370,8	1311,6

Yuqoridagi 1.2-jadval alohida segmentlar daromadlarini agroklasterlar moliyaviy natijasidagi ulushini ifodalaydi va ularni tarkibiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Segment daromadlariga quyidagi ko'rsatkichlar tegishli emas:

– moliyaviy qo'yilmalarni sotishdan olingan foizlar, dividendlar va daromadlar (bunday daromadlar segmentning asosiy faoliyati bo'lgan hollar bundan mustasno);

²⁷ "Samarqand Kamalak Invest Tekstil" MCHJning 2021-yil moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

– favqulodda daromadlar (fors-major majburiyatlar).

Xulosa qilganimizda, agrokalsterlarda xalqaro amaliyotda tan olingan segmentar hisob yuritish va hisobot tuzish tamoyillari va standartlariga o'tish tadbirlarini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Agrokalsterlarning faoliyat turlari va sohalarini segmentlarga ajratish subyekt rahbariyatining boshqaruv siyosati asosida amalga oshiriladi. Shu sababli, segmentlar bo'yicha ochib berilgan moliyaviy axborotlar oshkoralik nuqtai nazaridan olganda shaffof bo'lmay, tijorat siri hisoblanadi. Shuningdek, segmentar hisobot axborotlaridan turli korxonalar faoliyatini bir-biri bilan taqqoslash uchun foydalanish mumkin emas. Yuqoridagi holatlarni inobatga olmaganda, operatsion segmentlar to'g'risidagi axborotlar investorlar va boshqa foydalanuvchilar uchun zarur va dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 24.02.2020 yil, PQ-4611-son.

2. Moliyaviy hisobotning 8-sonli "Operatsion segmentlar" xalqaro standarti (MHXS).

3. Buxgalteriya hisobining 14-sonli "Segmentlar bo'yicha hisobot" nomli xalqaro standarti (BHXS).

4. Xasanov B.A, G'aniev Z.U., Muxammedova D.A., Boshqaruv hisobi.-T.: Iqtisod-Moliya, 2018.

5. Hasanova R.B. Paxta-to'qimachilik klasterlarida boshqaruv segmentar hisobi va hisoboti samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2020 yil.

6. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.

7. Yorbekova, D., & Raximova, U. (2023). MODERN FOUNDATIONS OF TEACHING ECONOMICS IN UNIVERSITY. Евразийский журнал академических исследований, 3(2 Part 4), 173-176.

8. Shodieva, G. M., & Paradaeva, O. M. Problems of family entrepreneurship developing and increasing employment and income of the population and reducing poverty. Gwalior Management Academy, 23(210), 14.

9. Paradaev, M. Q., & Mamayunusovna, P. O. (2020). The 7P model of self-employment. American Journal of Economics and Business Management, 3(2), 45-54.

10. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions, 712-721.

11. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.
12. Eshmuradov, U. T. The methodology of the primary account sales of agricultural products. In CONSTRUCȚII IDENTITARE-LITERATURA SI STUDII CULTURALE (pp. 113-118). Editura Vasiliana'98.
13. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 957-962.
14. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). EVALUATION AND ACCOUNTING OF MATERIAL WORKING CASH IN AGROCLUSTERS AS AN OBJECT OF ACCOUNTING. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 102-109.
15. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS IN AGROCLUSTERS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 310-316.
16. Salamov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4.
17. Abraqulovich, I. G., Salaxuddinovna, K. Z., Uytalovich, N. U., & Matlubovich, T. O. (2020). The impact of the organization of a cotton-textile cluster on the socio-economic development of the regions. International Engineering Journal For Research & Development, 5(4), 5-5.
18. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.
19. Mardiyevna, S. G., & Anvarovna, E. D. (2022). MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF FAMILY BUSINESSES IN THE DIGITAL ECONOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 206-211.